

“AL-HIDOYA” ASARIDA INSON HUQUQ VA ERKINLIKARINI
HIMOYA QILISH MASALALARI

Ganiyev Eldorbek Abduraxmonovich

Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti
yuridik byuro yuriskonsulti

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Al-Hidoya” asarida inson huquqlarini himoya qilishda sud tizimi va ularga qo‘yilgan talabalar o‘rganilib, uning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье изучена судебная система и требования, предъявляемые к ней, в защите прав человека в труде «Аль-Хидоя», а также освещены её особенности.

Annotation. This article examines the judicial system and the requirements imposed on it in the protection of human rights in the work *Al-Hidāyah*, and also highlights its distinctive features.

Kalit so‘zlar: суд тизими, inson huquqlari, himoya, erkinlik, adolat, javobgarlik.

Ключевые слова: судебная система, права человека, свобода, справедливость, ответственность.

Keywords: judicial system, human rights, protection, freedom, justice, responsibility.

Kirish. “Al-Hidoya” Burhoniddin Marg‘iloniy tomonidan tasnif qilingan mashhur asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asar alloma Burhoniddin Marg‘iloniyning “Bidoyatul mutbtadi” asariga muxtasar sharhdir.

“Al-Hidoya” asarini o‘z zamonasida mashhur qilgan Burhoniddin Marg‘iloniyning shogirdlari – Shamsula’imma Muhammad ibn Abdusattor Kardariy va boshqa allomalar hisoblanadi¹.

Asarda inson huquqlari va erkinliklari to‘g‘risida bilimlar, jumladan, inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish, inson huquqlari va erkinliklari unga tug‘ilganidan boshlab taalluqli ekanligi, ya’ni tabiiy huquqning e’tirof etilishi, inson huquqlari va erkinliklarining teng va barobar taalluqliligi, insonlarning kafolatlangan himoya bilan ta’milanishi, huquqni qo‘llovchi shaxslarda inson xuquqlari va erkinliklariga rioya qilish bo‘yicha mas’ullikni oshirish kabi masalalar yoritilgan.

¹ Хидоя шарҳ бидоятул мубтади. Бурхониддин Марғилоний. -Т.: “Hilol-Nashr”, 2022. – 896, 1-jild 12-b.

Inson huquqlari va uning himoyasi har bir davrning dolzarb masalasi hisoblangan. “Al-Hidoya” asarida inson huquqlari va himoya qilish munosabatlari ahamiyatli masalalar sifatida yoritilgan.

“Al-Hidoya” asari faqatgina musulmon dunyosida fiqhni o‘rganish manbaigina bo‘lib qolmasdan, yuridik sohada huquqiy masalalarni hal etishda qo‘llanma sifatida manbaga aylangan.

Asarda inson huquqlari himoyasi dolzarb masalalr sifatida bayon etilgan. Insonlarning huquq va erkinliklarini himoya qilishda sud tizimi ahamiyatli hisoblangan.

Sud tizim inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmining tarkibiy va hal qiluvchi qismidir. Sud buzilgan inson huquqlari va erkinliklarini tiklash tizimida eng muhim vosita hisoblanadi. Har bir shaxsning huquq va erkinliklarini sud tomonidan muhofaza etilishi, sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Asarda sud tizmida sudyalar uchun alohida talablar o‘rnatalgan bo‘lib, qozilar uchun talablar va qoidalar belgilanganligi inson huquqlarini himoya qilish dolzarb va birlamchi masala ekanligiga dalolat beradi.

“Al-Hidoya”da ta’kidlanadiki, qozilik vazifasiga shunday kishilar tayinlanishi lozimki, ular shu vazifani bajara olishi, qarorlar qabul qila bilishi, oliy darajadaadolat va yaxshilik tarafdori bo‘lishi zarur. Ular kamida guvohlik bera oladigan shaxslarga qo‘yilgan talablarga javob berishga qodir bo‘lishlari kerak. Chunki guvohlar uchun muhim bo‘lgan xislatlar qozilar uchun ham muhimdir. Agar qozi etib tayinlanayotgan shaxs ozod, sog‘lom kishi bo‘lmasa, voyaga yetmagan bo‘lsa, musulmon bo‘lmasa, tuhmatda ayblangan bo‘lsa, qozi bo‘lishi mumkin emas. Bu talabni hozirgi huquqshunoslik tili bilan ifodalaydigan bo‘lsak, qozi aqli raso, huquq va muomala layoqatiga ega, jismoniy shaxslar talabiga javob bera oladigan, fiqh ilmidan boxabar bo‘lishi lozim².

Qozilikka tayinlangan shaxslar o‘z majburiyatlarini masjid yoki haloyiq oldida, o‘z uylarida olib borishlari kerak edi. Eng yaxshi joy jome’ masjidlari bo‘lgan. Qozilarning pora olishlari, o‘z qarindosh-urug‘lari va yaqin do‘stlaridan o‘zga shaxslardan sovg‘a-salom qabul kilishlari mumkin bo‘lman. Ammo qarindosh-urug‘lari konunga xilof harakat sodir etgan bo‘lsa, qozi undan ham sovg‘a-salom olishdan voz kechishi zarur hisoblangan.

Agar qozi hukm chiqarish paytida dastlab da‘vogar talabiga qarshi tursa-yu, so‘ngra ko‘rinmay ketsa, qozi qaror chiqarish muddatini kechiktirishi mumkin. Chunki, qoidaga ko‘ra, qozi qaror chiqarayotgan paytda da‘vogar bilan javobgar o‘rtasida haqiqiy bahs bo‘lishi kerak edi³.

² З.Мукимов. Ўзбекистон давлати ва хуқуқи тарихи. Т. “Адолат” 2003, 125-бет

³ З. М уқимов. Мовароунахр фикҳ мактаби. С. “Зарафшон”, 1997.

“Xidoya”da ko‘rsatilishicha, qozilik vazifasiga shunday kishilar tayinlanmog‘i lozimki, u shu vazifani bajara olishi, qarorlar qabul qila bilishi, olivy darajada adolat va yaxshilik tarafdori bo‘lishi zarur. Ular kamida guvohlik bera oladigan shaxslarga qo‘yilgan talablarga javob berishga qodir bo‘lishlari kerak. Chunki guvhlar uchun muhim bo‘lgan xislatlar qozilar uchun ham muhimdir. Agar qozi etib tayinlanayotgan shaxs ozod, sog‘lom kishi bo‘lmasa, voyaga yetmagan bo‘lsa, musulmon bo‘lmasa, tuhmatda ayblangan bo‘lsa, qozi bo‘lishi mumkin emas.

Bu talabni hozirgi huquqshunoslik tili bilan ifodalaydigan bo‘lsak, qozi aqli raso, huquq va muomala layoqatiga ega, jismoniy shaxslar talabiga javob bera oladigan, belgilangan bilimlardan boxabar bo‘lishi lozim. Qozilik mansabiga tayinlash davlat vakolatiga kiradi. Hukmdor (davlat boshlig‘i) bu mansabga o‘z majburiyatlarini bajara oladigan va adolat bilan qaror chiqara oladigan shaxslarni tayinlashi lozim bo‘lgan. Qozilikka noqobil kishilarning tayinlanishi jamiyatga katta zarar keltirgan.

“Al-Hidoya”da shahodat berilishicha, dalillarga ajratilgan qoida hamda fikrlar kitobda jamlangan. Unda dalillarni qabul qilish, ularni rad etish, guvohlarning ko‘rsatuvlari orasidagi fikrlar, meros masalalarida dalillar, dalillarni guvohlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Sudga isbot-dalil kuchiga ega bo‘lgan asosiy narsa - guvohlarning ko‘rsatmalari, hujjatlar hamda lozim bo‘lgan hollarda qozi tomonidan yashirin yoki ochiq holda o‘tkaziladigan gumonlardan tozalash (shartli ravishda psixatriya ekspertizasi) o‘tkazilishidir.

Qozi “Bunda guvoh yoki javobgarning so‘zlariga ishonish mumkinmi?”, “Uning xarakteri, ruhiyati qanday?” degan savollarga javob topish uchun uni yaxshi bilgan yoki kishilar xarakterini ajrata oladigan kishilarga yozma so‘rov yuboradi, ba’zan ochiq sud majlisiga shunday kishilar (kamida ikki kishi)ni taklif qiladi⁴.

Guvoh aqli raso, shaxsan ozod, obro‘li er va xotin kishilar ham bo‘lishi mumkin, ammo ikki xotin kishining ko‘rsatuvi bir erkaknikiga to‘g‘ri keladi. Guvohlik ko‘rsatmalarini berish - farz, ya’ni musulmonning majburiyatlaridan bo‘lib, bila turib undan bo‘yin tov lash mumkin emas. Shu bilan birga qullar, cho‘rilar, tuhmatchilikda ayblanganlar, motam marosimlarida yig‘lash va kuylash bilan shug‘ullanuvchilar, taqiqlangan ichimlik ichishga o‘rganib qolganlar, qush ovchilari, ilgari rahmsiz jinoyatlar qilgan kishilar, sudxo‘r, o‘yinch, kamtar bo‘limgan kishilar ham guvoh bo‘lishlari mumkin emas edi⁵.

Xulosa qilish mumkinki, asarda inson huquqlari himoyasi dolzarb va aktual masala sifatida bayon etilgan. Har bir inson shaxsiy hayotining daxlsizligi, shaxsiy va oilaviy mulkiga ega bo‘lish, o‘z sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish huquqiga ega ekanligi muhim hisoblangan.

⁴ З.Муқимов. Ўзбекистон давлати ва хуқуқи тарихи. Т. “Адолат” 2003 128-бет

⁵ З.Муқимов. Ўзбекистон давлати ва хуқуқи тарихи. Т. “Адолат” 2003 110-120-бет

Таъкидлаш лозимки, асарда shaxsiy hayot daxlsizligi insonning shaxsiy huquqiy maqomini anglatuvchi, ya’ni insonning ozodligi, sha’ni va qadr-qimmati bebaho va daxlsiz qadriyat sifatida ulug‘lanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Президенти БМТ Бош Ассамблеясининг 78-сессиясида нутқи. 20.09.2023
2. Одил Қориев. “Бурхонуддин ал-Марғиноний - ҳуқуқшунос” / «Шарқшунослик» тўплами. Т., 1993 й.
3. Хидоя. Комментарии мусулманского права. Отв. ред. и авт. вступ. статьи и комментарий А.Сайдов. Ташкент: Ўзбекистон, 1994.
4. Мўминов А. Мовароуннаҳр уламолари: ҳанафийлар // Шарқшунослик. №9 /1999.
5. Тошқулов. Ж., Юсупова Н., Бекмирзаев И., Сарсенбоев О., Масайдов С. Ислом ҳуқуқшунослиги. Ўқув қўлланма. – Т.; Тошкент ислом университети нашриёт матбаа бирлашмаси, 2014.
6. З.Муқимов. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. Т. “Адолат” 2003
7. Оъзбекистон Фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти қўлёзмалар фондида №.Р.9445 рақам остида сакланаётган «Виқоят арривоя» қоълёзма нусхаси. Б.1.
8. Юсупова Н.Ж., Жузжоний А.Ш. Бурхониддин Марғ‘иноний: Ҳаёти ва илмий мероси. – Т.: Академия, 2007.
9. Наврўзова Г. Ал-Марғиноний ва Баҳовуддин Нақшбанд таълимоти. // Ҳидоят. 2000.
10. Маҳмуд Ҳасаний. Ал-Марғинонийнинг «Ҳидоя» асари ва унга ёзилган шарҳлар. Тошкент: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000.
11. И.Бекмирзаев “Ҳидоя” асарининг юзага келиши ва унинг турли тиллардаги таржималари ([хттп://www.doi.org/10.37547/ежар-в03-и02-п4-168](https://www.doi.org/10.37547/ежар-в03-и02-п4-168))
12. Т.Курбонов, Бурхониддин Марғиноний - ислом ҳуқуқшунослигининг улкан намояндаси. ([хттп://гулободтонги.уз/жамият/бурониддин-мароиноний-ислом-уушунослигининг-улкан-намояндаси](http://гулободтонги.уз/жамият/бурониддин-мароиноний-ислом-уушунослигининг-улкан-намояндаси))